



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 6-yanvar, seshanba,
1 (24.181)-son

O'zbek xalq
maqoli

Dangasaga
ish
buyursang,
aql o'rgatar

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz



VILOYAT HOKIMI ASKARLAR BILAN TUSHLIK QILDI

Viloyat hokimi Adiz Boboyev “Milliy armiya — ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni” shiori ostida o'tkazilayotgan harbiy vatanparvarlik oyiligi doirasida Markaziy harbiy okrugga qarashli harbiy qismda bo'lib, ofitser va askarlar bilan uchrashdi.

Dastlab viloyat rahbari harbiy qism o'quv va amaliy mashg'ulot xonalari, sport zal va tarix o'quv binosi bilan tanishdi.

— Ajdodlarimiz jasorati, ularning jang san'ati haqidagi ma'lumotlar har birimizda ona-Vatanga mehr, faxr-iftixor tuyg'usini jo'sh urdiradi, — dedi A.Boboyev. — Bugun oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri yoshlarga buyuk jahongir va sarkar-da bobolarimiz harbiy salohiyati haqida ko'proq ma'lumot berish, ularda bundan faxr tuyg'ularini uyg'otishdan iborat. Shuning uchun o'quvchi-yoshlarning harbiy qismlarga sayohatlarini, harbiy xizmatchilar bilan uchrashuvlarini muntazam tashkil etish lozim.

Viloyat hokimi tog' o'qchilar bataloni yotoqxonasi va tunu kun faoliyat ko'rsa-

tadigan “Kitob-24” kutubxonasi faoliyati bilan tanishdi. Kutubxonada harbiy xizmatchilarning farzandlari xorijiy tillarni o'rganishi uchun bepul to'garaklar tashkil etilgan bo'lib, mutaxassis serjant va ofitserlar birlashtirilgan. Ushbu to'garaklar va kutubxonaga shu hududda yashovchi fuqarolar, jumladan, kam ta'minlangan oilalar farzandlari ham jalb qilinmoqda.

Adiz Boboyev askar va serjantlar bilan birga tushlik qilib, ular bilan dildan suhbatlashdi. Yoshlarning maqsadlari, orzu-istaklari bilan qiziqdi.

Suhbat chog'ida mamlakatimiz Qurolli Kuchlaridagi islohotlar, jahon armiyalari tajribasi va o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritildi.

Viloyat hokimligi axborot xizmati.



“O'zbekiston — 2030” strategiyasining yangi tahriri jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yilning 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “O'zbekiston — 2030” strategiyasini qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlagan edi.

Shunga ko'ra, so'nggi yillardagi o'zgarish va natijalarni hisobga olib, “O'zbekiston — 2030” strategiyasining takomillashtirilgan loyihasi ishlab chiqildi va uzbekistan2030.uz hamda regulation.gov.uz platformalarida jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig'iga muvofiq, yurtimizning kelgusi besh yillik taraqqiyotiga daxldor bo'lgan ushbu hujjat aholi fikr-mulohazalari asosida takomillashtiriladi.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasi loyihasi muhokamasida faol ishtirok eting!

Savol va takliflaringizni **(71) 239-49-38, (71) 239-49-44** raqamli koll-markazi orqali bildirishingiz yoki info@asr.gov.uz elektron manziliga yuborishingiz mumkin.



Issiqlik ta'minoti: Ham uy isiydi, ham kamxarajat bo'ladi

Samarqandliklarning qariyb 20 yildan beri ushalmagan orzusi amalga oshdi. Shahar aholisini issiqlik bilan ta'minlab keluvchi RK-1 va RK-2 qozonxonalari ishga tushirildi. Bir necha yillardan buyon Bog'dod ko'chasidagi qozonxona qurilishi davom etib kelayotgan edi. Foydalanishga topshirilishi bir necha bor ortga surilgan obyekt 2025-yil dekabr oyida ishga tushirildi va aholi xonadonlariga issiqlik uzatila boshlandi.

ruxsat berildi.

Mazkur ishlarni o'z zimmasiga olgan “Elit Grand” MChJ quruvchilari tomonidan 3 ta qozon, 2 ta transformator o'rnatildi. Qozonxonadagi turli quvvatdagi 6 ta nasos ishga tushirildi. Shuningdek, 3 ta dublicon o'rnatilib, montaj ishlari bajarildi. Barcha nasoslar suv tarmog'iga ulanib, issiqlik hisoblagichlar o'rnatildi.

Bir paytlar mazkur qozonxona yordamida qariyb 25-30 ming aholi yashovchi xonadonlar isitilib, issiq suv bilan ta'minlanib kelinardi, — deydi Rudakiy ko'chasidagi ko'p qavatli uyda yashovchi mehnat faxriysi Ivan An. — Keyinchalik issiq suv kelmay qoldi, qishda uylarimiz ham ismaydigan bo'ldi. Bir necha bor shahar hokimiyatiga murojaat qilganimizda “Endi issiqlik ta'minoti bo'lmaydi, unga mas'ul tashkilot ham tugatildi, qishga tayyorgarliklaringni ko'ringlar”, deb javob berishganidan so'ng

odamlar o'z kvartirasidagi issiqlik batareyalarini olib tashladi. Ayni vaqtda, elektr va tabiiy gazda ishlaydigan ikki konturli pechlardan foydalanyapmiz. To'g'ri, xarajati ko'p, lekin boshqa ilojimiz ham yo'q-da, uyni isitishimiz kerak-ku, axir?



(Davomi 2-sahifada) >>>

O'tgan yili

Samarqand tibbiyoti

dagi muhim voqealar

* Tashkentdagi tibbiyot markazlarida amalga oshirilgan 320 turdagi yuqori texnologik operatsiyalar viloyatdagi 3400 nafar bemorda qo'llanilib, poytaxtda davolanuvchilar soni ikki barobarga kamaydi.

* Samarqand shahrida ilk bor 2-Yevroosiyo tibbiyot kongressi va 1-Yevroosiyo hamshiralari kongressi bo'lib o'tdi. Unda murakkab robot xirurgiyasi operatsiyalari o'tkazildi.

* Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filialida Birlashgan Arab Amirliklarining “NOOR-DUBAI” fondi moliyaviy ko'magida tibbiy ko'rik tashkil etilib, murakkab jarrohlik amaliyotlari bajarildi.

* Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filialiga Turkiyadan kelgan jahon darajasidagi mutaxassis, professor Ozgur Klichekmez

bir qator bemorlarda qalqonsimon bezda mikroto'liqlik ablyatsiya amaliyoti bo'yicha operatsiya o'tkazdi va bu borada filial jarrohlari mahorat darsi o'tdi.

* Mamlakatimiz rahbari tibbiyot xodimlari bilan o'tgan uchrashuvda Ishtixondagi poliklinika misolida tibbiyotdagi birlamchi bo'g'inning zaif “nuqta”sini tanqid qildi. Yig'ilishda birlamchi tibbiyot tizimida katta o'zgarishlar bo'lishi haqida aniq vazifalar belgilandi. Prezident aytilgan yangi tizimni 2025-yilda Ishtixon bilan birga Samarqand shahri, Bulung'ur tumani va qolgan viloyatlarning bittadan tumanida, keyingi yildan to'liq Samarqand viloyatida, 2027-yildan esa bosqichma-bosqich barcha hududlarda joriy qilishga topshiriq berildi.

* Viloyatdagi barcha tibbiyot muassasalari raqamlashtirishga o'tkazildi, D-MED tizimi bo'yicha tibbiyot xodimlari o'qitilishi tashkil etildi.

* Viloyat hokimi Adiz Boboyevning germaniyalik tibbiyot vakillari bilan uchrashuvi davomida Samarqandda Germaniya bilan hamkorlikda tibbiyot yo'nalishida mutaxassislar tayyorlanishi belgilandi.

* Poliklinikalarda aholiga dori-darmon berilishi reimbursatsiya dasturi bo'yicha amalga oshiriladigan bo'ldi. Eng ko'p uchraydigan, ya'ni yurak-qon tomir, endokrin, nafas yo'llari xastaliklari, oshqozon-ichak tizimi xastaliklari uchun 29 turdagi dori-darmonlar bepul ajratildi. Bu dasturga ko'ra, har bir bemorga poliklinikada elektron retsept asosida kod beriladi. Bemor ushbu kod bilan istalgan poliklinikada o'sha dorilarni bepul olishi mumkin bo'ldi.

* Respublika shoshilinch tez yordam ilmiy markazi Samarqand filiali shifokorlari tomonidan

respublikamiz tibbiyot tizimida birinchilardan bo'lib, insultni davolash yuzasidan yangicha yondashuvlar asosida yuqori texnologik jarrohlik amaliyoti o'tkazildi.

* Nurobodda yangi reabilitatsiya markazi faoliyat boshladi.

* 4-8-noyabr kunlari Singapurda bo'lib o'tgan 21-Butunjahon endoskopik jarrohlik kongressi (WCES-2025)da o'zbekistonlik tibbiyot xodimlari, xususan, samarqandlik shifokorlarning mahorati e'tirof etildi.

* Samarqandda ilk bor keng ko'lamdagi, bir oy davom etgan Salomatlik marafoni o'tkazildi.

* Samarqand shahrida Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat filialining yangi binosi foydalanishga topshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budget kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025-yil 20-oktabrdagi 02-1515-sonli va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-dekabrda 01/57-1-29239-son xatlarini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashining yettinchi chaqiriq yigirma to‘rtinchi sessiyasi **QAROR QILADI:**

- O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
- Mazkur Qonunga muvofiq, viloyat mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari 7 200,0 milliard so‘m va xarajatlari 8 903,3 milliard so‘mga ma‘lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 1 703,3 milliard so‘m miqdorida, shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan transfertlar 406,9 milliard so‘m miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.
- Quyidagilari:
 - viloyat budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-illovaga;**
 - viloyat budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-illovaga;**
 - 2026-yil uchun viloyat, tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek, soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan normativlari **3-illovaga;**
 - Bunda, mazkur qaror qabul qilingandan so‘ng bir kun muddatda tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari bo‘yicha viloyatning viloyat budjeti bilan tumanlar va shaharlar budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi”ga viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilsin.
 - Tumanlar va shaharlar budjetlarining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi **4-illovaga** muvofiq ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
 - 2026-yil uchun viloyat budjeti, tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **5-illovaga** muvofiq belgilansin.
 - Viloyat budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 47,9 milliard so‘m miqdorida belgilansin.
 - 2026-yil uchun viloyat budjeti, tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan tumanlar va shaharlar budjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.
 - Bunda tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari miqdori oldingi yildagi hajmidan kam bo‘lmagan miqdorda shakllantirilishi hamda qo‘shimcha mablag‘larni shakllantirish viloyat budjeti

- zaxira jamg‘armalari mablag‘larini kamaytirish hisobidan amalga oshirilganligi inobatga olinsin.
- Quyidagilar:
 - Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **6-illovaga;**
 - Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kvadrat metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **7-illovaga;**
 - Noturar ko‘chmas mulk obyektlarining mol-mulk solig‘i bo‘yicha 1 kvadrat metr maydon uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsiyentlar **8-illovaga** muvofiq tasdiqlansin.
 - Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Bo‘ronov), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B.Mirzayev), viloyat soliq boshqarmasi (F.Boboyev), tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta‘minlash choralari ni ko‘rsin.
 - Tumanlar va shaharlar hokimliklari, hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar 2026-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas‘uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta‘minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha manbalarni aniqlash zarurligiga alohida e‘tibor qaratsin.
 - Viloyat soliq boshqarmasi (F.Boboyev) hududiy soliq organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:
 - soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblani-shini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;
 - yer solig‘i, suv resurslaridan foydalan-ganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta‘min-lash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik cho-ralarini ko‘rish;
 - aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylan-malarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini

- o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;
- yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya‘ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.
- Majburiy ijro byurosi viloyat bosh-qarmasi (B.Haydarov), viloyat soliq boshqarmasi (F.Boboyev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda chorak-lar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.
 - Davlat aktivlarini boshqarish agent-ligi Samarqand viloyati hududiy boshqar-masi (A.Egamov), O‘zbekiston Respub-likasi Davlat aktivlari agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (A.Yangiboyev):
 - bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;
 - xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga ber-ish yoki sotish bo‘yicha tagishli takliflar tayyorlanishini ta‘minlash.
 - “Zarafshon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (F.Rajabov) va viloyat soliq boshqarmasi (F.Boboyev) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajm-lari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste‘mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalan-ganlik uchun soliqlarning to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy bud-jetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yukla-tilsin.
 - Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari to-monidan iste‘mol qilinayotgan suv resurs-lari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e‘tibor qaratilsin.
 - Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (T.Aripov), Majburiy ijro byurosi Samar-qand viloyati boshqarmasi (V.Haydarov) viloyatda budjetga hisoblangan boj, jari-ma va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq budjet-ga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.
 - Xalq deputatlari hududiy Ken-gashlar hamda tuman (shahar) hokimlari O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksining 27- va 28-moddalarida belgi-langan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda budjet mablag‘la-

- rining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnat-sin.
- Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maq-sadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari viloyat Kengashiga hisobot berib borsinlar.
 - Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:
 - budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xusu-san, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kom-munal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarning to‘liq rejalashti-rilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;
 - o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilot-larning xarajatlar smetasi va shtat jad-vallari hamda daromadlar va xarajatlari smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;
 - budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indika-torlarning to‘liq bajarilishi;
 - tasarrufidagi tizim tashkilotlariga bud-jetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;
 - o‘z tasarrufidagi tizimda budjet in-tizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;
 - budjet jarayonining ochiq-ligini ta‘min-lash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma‘lumotlarni joylashtirib borilishini

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 30-dekabrda 01/57-1-29239-son xatlarini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashining yettinchi chaqiriq yigirma to‘rtinchi sessiyasi **QAROR QILADI:**

Viloyat budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/R		DAROMAD TURLARI	Jami
1		Qo‘shilgan qiymat solig‘i	273 488 490,0
2		Foyda solig‘i	576 410 670,0
3		Aylanmadan olinadigan soliq	44 241 261,0
4		Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 231 001 010,0
5		Aksiz solig‘i, jami	356 880 500,0
shu jumladan:			
-alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)			10 789 200,0
-pivo			22 590 000,0
-benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste‘molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i			323 501 300,0
6		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	209 616 450,0
7		Yuridik shaxslar yer solig‘i	276 749 143,0
8		Davlat boji	271 857 220,0
9		Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasi-dan ajratmalar	1 151 000,0
10		Jarimalar	192 847 200,0
11		Yig‘imlar	117 163 090,0

Qarorning boshqa ilovalari bilan ushbu QR-kod orqali tanishishingiz mumkin.



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Ayni vaqtda RK-1 qozonxonasi yordamida Samarqand shahridagi Rudakiy ko‘chasidagi 102 va Bog‘dod ko‘chasida 20-raqamli ko‘p qavatli uylarda joylashgan 76 ta xonadonda yashovchi 250 nafar aholining issiqlik ta‘minoti qayta tiklandi. Mutaxassislarning ta‘kidlashicha, 15,4 kilometr issiqlik quvurlari yotqizilib, 91 ta ko‘p qavatli uyning yerto‘lasiga individual issiqlik punktlari o‘rnatilgan. Tarmoqlar-ni aholi xonadonlariga o‘tkazish ishlari bosqich-ma-bosqich davom etmoqda.

Qish boshlanishi bilan shahardagi RK-2 markaziy qozonxonasi ham ishga tushirildi. Hozir Sartepa massividagi 17 ta ko‘p qavatli uyda joylashgan 680 ta xonadonning issiqlik ta‘minoti tiklandi.

- Bir vaqtlar e‘tiborsizlik qilib kvartiramizdagi barcha issiqlik batareyalari va quvurlarini olib tashlagan ekanmiz, -deydi Abdurasul G‘ofurov. – Endi ta‘minot butunlay izdan chiqdi, qaytib ishlamasa kerak degan xayolda yurgan ekanmiz. Qishning qahraton kunlarida yana issiqlik qaytdi. Yangi, issiqlik to‘jovchi zamonaviy batareyalar o‘rnatdik. Gap ahillikda ekan, uyimizdagi barcha xonadon egalari bilan kelishgan holda, quvurchilarning tarmoq o‘tkazishlariga sharoit yaratib berdik. Ular yerto‘laga induvidual issiqlik punkti o‘rnatib, darrov tizimni ishga tushirishdi. Elektr va gazga ortiqcha xarajat qilmaydigan bo‘ldik.



Issiqlik tizimlari tiklangan xonadonlarning egalari ayrim uylarda isitish va issiq suv ta‘minoti yaxshi emasligi, ya‘ni isitish radiatorlarida va suv olish joy-larida issiq suvning harorati pastligini aytmoqda. Ular yuni isitish va issiq suv bilan ta‘minlashda qanday me‘yorlar belgilangani to‘g‘risida huquqiy tushuntirish berishni so‘rashdi.

- Iste‘molchilarni issiq suv bilan ta‘minlash kecha-kunduz va uzluksiz amalga oshiriladi, -deydi “Issiqlik ta‘minoti” MChJ bo‘lim boshlig‘i Jamo-liddin Husanov. - Isitish mavsumida 1995-yilga-cha qurilgan ko‘p qavatli turarjoy xonalaridagi harorat kamida 20 daraja, agar issiqlik tizimi rekonstruksiya qilinmagan bo‘lsa, harorat kami-da 18 daraja bo‘lishi kerak. Issiq suv ta‘minoti bo‘yicha sanitariya qoidalariga muvofiq suvning harorati 50–75 daraja issiq bo‘lishi kerak. Ayni vaqtda ushbu zamonaviy qozonxonalarimizda-gi uskunalar ana shu talabga javob beryapti. Markazlashtirilgan issiqlik ta‘minoti bilan qamrov imkoniyati bo‘lmagan hududlarda xonadonlar lokal va boshqa isitish qurilmalari bilan ta‘min-

langan. RK-2 markaziy qozonxona to‘liq ishga tushsa, 386 ta ko‘p qavatli uyga va 22 ta ijtimoiy soha obyektiga xizmat ko‘rsatadi.

Yopiq tizimga o‘tish orqali, iste‘molchi, ko‘p qavatli uyga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot va issiq-lik ta‘minoti korxonasi o‘rtasida aniq hisob-kitoblar amalga oshiriladi, chunki har bir individual issiqlik punktida aqlli hisoblagich o‘rnatiladi. Yetkazib ber-ilayotgan issiqlik energiyasining miqdori, harorati va bosimi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar real vaqt rejimida qayd etib boriladi. IIPning isitish blokidagi nasoslar uy ichki isitish tizimidagi radiatorlarda issiqlikning bir maromda aylanishini ta‘minlab, bitta xona isib, ikkin-chisi ismay qolishi bartaraf etiladi. Uyning so‘nggi qavatidagi xonadonlarda ham sutkaning istalgan vaqtida issiq suv jo‘mragi ochilgan zahoti issiq suv tushishiga erishiladi. Natijada issiqlik energiyasi iqtisod qilinib, oylik to‘lovlar kamayishiga zamin yaratiladi va energiya resurslarining 7 foizdan 10 foizgacha tejalishiga erishiladi.

Dilmurod TO‘XTAYEV, “Zarafshon” muxbiri.

Soha Samarqand uchun begona emas. Ming yillar narisida ham hunarmandlarimiz tayyorlagan mahsulotlar turli davlatlarda mashhur bo'lgan. Shu bois keyingi yillarda mebel chilikni zamon bilan hamnafas rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu boradagi ishlar samarasi o'laroq o'tgan yilning 1-noyabr holatiga viloyatda 608 ta mebel korxonasi ro'yxatdan o'tgan. Faqat shuning o'zi bilan kifoyalansak, hammasi yaxshidek go'yo. Biroq ro'yxatdan o'tgan korxonalarning 49 foizi yoki 299 tasi faoliyat ko'rsatmoqda. Qolgan 51 foizi faoliyat ko'rsatmayotgani joylardagi ishlarining ahvolini, aniqrog'i sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning ijrosi sust ekanligini ko'rsatmaydimi?!

SOYADA QOLAYOTGAN SOHA

Tahlillarga ko'ra, mebel korxonalari-ning 75 tasi 25 foiz, 58 tasi 50 foiz, 63 tasi 75 foiz va bor-yo'g'i 78 tasi 100 foiz quvvatda ishlayapti. Viloyat bo'yicha quvvatlardan foydalanish darajasi o'rtacha 63 foizni tashkil qilgan. Demak, mebel ishlab chiqarish imkoniyatining yarmidan sal ko'prog'idan foydalanyapmiz.

Bundan tashqari, 353 ta korxona hisobotlarida ishchilar soni ko'rsatilmagan. Qolganlarida esa 1 tadan 3 tagacha ishchi bilan faoliyat yuritayotgani qayd etilgan. Mazkur holat sohada yashirin iqtisodiyot "gullab" yotganini ko'rsatmaydimi?

Muammo va kamchilik tahlillarda ko'zga tashlanishi rost. Shu ma'noda o'tgan yil 9 oyi yakuni bilan 242 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilganidan xursand bo'lolmaymiz. Chunki bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 52 milliard so'mga ko'p bo'lishiga qaramasdan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soniga taqsimlanganda o'rtacha 843 million so'mlik mebel mahsuloti to'g'ri kelmoqda, xolos.

Shuningdek, ishchilar soni viloyat bo'yicha 149 taga oshgan, ammo Samarqand tumanida 47 taga, Narpayda 17 taga, Bulung'urda 8 taga kamaygan.

MUTASADDILAR MAS'ULIYATNI UNUTDIMI?

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-maydagi "Mebel va yog'ochsozlik sanoatining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan Past Darg'om tumani Xonqa tajribasi asosida 2025-2026-yillarda mebel chilik jadal rivojlantiriladigan tumanlar ro'yxatiga kiritilgan.

Tumanda 30 gektarlik hududda

Mebelchilik nega rivojlanmayapti



mebelchilik markazi tashkil etish vazifasi belgilangan. Biroq tuman hokimligi bugungi kunga qadar mos keluvchi bo'sh yer maydoni bo'yicha taklifni taqdim etmagan. Tumandagi Qorag'uppa mahallasida joylashgan "Nextformuz" mas'uliyati cheklangan jamiyatida 55 nafar ishchi ko'zga tashlangan. Biroq soliq bazasida ishchilar soni 25 nafarni tashkil qilib, qat'iy soliq to'lov rejimida ekan. Bu degani har oy 2,5 million so'm soliq to'lanadi, ammo korxona ochilish marosimidan beri 2 oy o'tdi. Kamida 50 kundan beri ishlanmoqda.

Bir dona stul narxi 500 ming so'mligini va quvvati kuniga 1500 taligini inobatga olsak, bu 50 kunda 37,5 milliard so'm degani. Korxona tovar aylanmasi 500 million so'mdan oshgan taqdirda qat'iy soliq to'lovchidan chiqarilishi kerak. Ammo shuncha katta korxona chiqarilmasdan ke-linmoqda. Masalan, o'sha kunning o'zida sexdagi tayyor mahsulotlar va shourumdagi mahsulotlar qiymati ham 500 million so'mdan oshib ketadi.

qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator imtiyozlar berilgan, jumladan, mebel ishlab chiqarishda foydalaniladigan xomashyo, ehtiyot qismlar, furnitura va aksessuarlar importida bojxona boji 1 foiz stavkada etib belgilangan. Biroq bu imkoniyatdan yetarlicha va to'g'ri foydalanilmayapti.

SAVDODAGI KO'ZBO'YAMACHILIK

Samarqand shahridagi "Ishonchli mebel jihozlari" mas'uliyati cheklangan jamiyati mebel jihozlari savdosi faoliyati bilan shug'ullanadi. Jamiyat do'koniga kirilganda bironta xaridorga QR kodli chek berilmayotganligi aniqlangan. Korxona rahbari shu vaqtga qadar 200 ming AQSh dollarilik (2,4 milliard so'm) mahsulot sotganini ma'lum qilgan. Biroq soliq bazasida 9 oylik jami tovar aylanmasi 983 million so'm etib ko'rsatilgan. Aslida ushbu korxona yiliga qariyb 30 milliard so'm savdo qiladi.

Ushbu manzildagi "Brickwood" shourumida 3000 dan ortiq mebel mahsulotlari namunasi mavjud. Bu do'kondan ustalar yoki xaridorlar mahsulotga buyurtma beradi, zaruriy o'lcham va son aniqlanib, biroz yuqorida joylashgan ishlab chiqarish sexiga - "Samarqand mebel servis" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga buyurtma jo'natiladi. U yerdan yarim tayyor mebel ishlab chiqariladi va ustalar tomonidan xaridorga yetkazib berib, yig'iladi.

Ishlab chiqarish faoliyati o'rganilganda shourumda 3 nafar va ishlab chiqarishda 30 dan ortiq ishchilar ishlayotganligi, ular kuniga 300 ta DSP listni qayta ishlamayotganligini ma'lum qilgan. Bitta DSP dan kesilgan yarim tayyor mahsulot narxi 450 ming so'mni tashkil etadi. Agar korxona bir oyda 25 kun ishlasa, kamida 3 milliard 375 million so'mlik mahsulot tayyorlab beriladi. 9 oyda bu 30 milliard 375 million so'mlik mahsulot bo'ladi. Biroq soliq bazasida ishchilar soni 15 taga kam ko'rsatilgan, 9 oylik jami tovar aylanmasi esa 6,4 milliard so'mni ko'rsatgan.

Korxonaga yondosh hududda yana bir mebel sexi ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat ko'rsatayotganligi aniqlangan. Tabiiy savol tug'iladi, nega ishlab chiqarish hajmi yashirilayotganligiga hamma indamasdan qarab turgan?

"SIYA MEBEL" mebel sexida ishchilar soni 7 nafar qilib ko'rsatilgan, ammo 35 nafariga yaqin ishchi ishlayotgani ma'lum bo'ldi. Korxona rahbari ular mavsumiy ishchi ekanliklarini bildirdi. Ammo mavsumiy ishchini ro'yxatga olmaslik mumkinligini kim o'rgatgan?

Viloyat hokimi ishtirokida o'tgan muhokamada mutasaddilardan shu kabi savollar so'raldi. Qayd qilingan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq vazifa va muddatlar belgilandi.

Y.MARQAYEV.

Sudlarda korrupsiya bilan bog'liq 400 ta jinoyat ishi ko'rilgan

2025-yil 5-mart kuni davlatimiz rahbari ishtirokida o'tkazilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashi yig'ilishida korrupsiyaga qarshi kurashish umummilliy vazifa va har bir fuqaroning vijdon ishi ekanligi, korrupsiyaga "jamiyat tanasidagi saraton" sifatida qarash kerakligi ta'kidlangandi.

Ushbu yig'ilishda belgilangan vazifalarni bajarish borasida viloyatimiz sudlari tomonidan ham muayyan tashkiliy-huquqiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, yilning 11 oyi davomida sudlarda korrupsiya bilan bog'liq 400 ta (624 nafar shaxsga nisbatan) jinoyat ishi ko'rib tamonlandi. Bu turdagi jinoyatlarni sodir etganlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 49 nafargacha ko'paygan.

Jinoyatlar toifasiga qaraydigan bo'lsak, eng ko'pi o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish (452 nafar shaxsga nisbatan), firibgarlik (64 nafar shaxs), pora olish (13 nafar shaxs), pora berish (18 nafar shaxs), davlat xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi (6 nafar shaxs), mansab vakolatini suiiste'mol qilish (9 nafar shaxs) bilan bog'liq bo'ldi.

Korrupsiyaga oid 361 ta jinoyat ishi bo'yicha 569 nafar shaxsga nisbatan ayblov hukmi chiqarilgan bo'lib, 62 nafar sudlanuvchiga ozodlikdan mahrum qilish, 79 nafariga ozodlikni cheklash, 347 nafariga axloq tuzatish ishlari, 64 nafariga jarima jazolari tayinlandi.

Sudlangan shaxslarning kelgusida yana shunday jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida 332 nafariga u yoki bu mansabni egallash yoxud u yoki bu faoliyat bilan shug'ullanishini taqiqlash uchun qo'shimcha muayyan huquqdan mahrum qilish jazolari qo'llanildi.

Mazkur toifadagi jinoyatlar sohalar kesimida tahlil qilinganda maktabgacha va maktab ta'limi tizimidan 67 nafar shaxs, sog'liqni saqlash sohasidan 32 nafar, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlaridan 26 nafar, hokimliklardan 24 nafar, banklardan 18 nafar shaxs korrupsion jinoyatlarga qo'l urgani aniqlandi. Eng achinarlisi, ushbu jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning 126 nafari yoki har besh nafardan biri muqaddam sudlangan. Shundan 99 nafari avval ham korrupsiyaviy jinoyatga qo'l urgan.

Misol uchun, D.Bobobekov muqaddam to'rt marotaba korrupsiya bilan bog'liq jinoyati uchun sudlanib, jazoni o'tayotgan bo'lsa-da, "Agrobank" ATB Qo'shrabot filiali boshqaruvchisi o'rinbosari vazifasida ishlab kelib, boshqa fuqaroning nomiga rasmiylashtirilgan, amalda esa o'zi boshqarib kelgan mas'uliyati cheklangan jamiyatga 1 milliard so'm kredit ajratib, pullarni shaxsiy ehtiyojlari-ga sarflab yuborgan. Bu gal unga 2 yil muayyan huquqdan mahrum qilingan holda 7 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Korrupsion jinoyatlar natijasida davlat manfaatlariga 237 milliard 821 million so'm miqdorida moddiy zarar yetkazilgan. Shu paytgacha 83 milliard 485 million so'm zarar qoplangan.

Temur ALMAMATOV,
viloyat sudi sudyasi.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati Akbarali Qayumov Samarqand shahridagi Nurli kelajak, Shukrona, Madaniyat, Nurafshon, Chorbog' va Darg'om mahallalari raislari, faollariga hisobot berdi.

Qayd etilishicha, okrugdagi saylovchilar uchun hududdagi SMART CITY shaharchasida deputatlik qabulxonasi tashkil etilgan. 2025-yilda 7 marotaba sayyor qabul o'tkazilib, 190 dan ortiq murojaat qabul qilingan. Tahlillarga ko'ra, elektr ta'minoti va ko'cha yoritish masalalari bo'yicha 25 ta, tabiiy gaz ta'minoti bo'yicha 18 ta, ichimlik va oqova suv ta'minoti bo'yicha 17 ta, yo'l harakati xavfsizligi va transport masalalariga oid 10 ta, obodonlashtirish va asfaltlash

Deputat saylovchilarga hisobot berdi

bo'yicha 24 ta, chiqindilarni olib ketish bo'yicha 25 ta, sog'liqni saqlash tizimiga oid 10 ta hamda boshqa masalalar yuzasidan 61 ta murojaat kelib tushgan.

Murojaatlarni hal etish maqsadida 36 ta deputatlik so'rovlari chiqarilgan. Natijada ijtimoiy ahamiyatga ega qator masalalar ijobiy hal etilgan. Xususan, Mehrobd mahallasida yashovchi S.Xolmamedovga yurak operatsiyasi uchun elektron order olib berilib, 60 million so'm mablag' ajratilgan. Ushbu fuqaroning turmush o'rtog'i ham imtiyozli davolanish uchun order bilan ta'minlangan.

Bundan tashqari, saylovchilar murojaatiga asosan Shukrona va Mirzo Bedil

mahallalarida chiqindi uchun konteyner o'rnatilib, gaz bosimini oshirish masalasi hal etildi. Qator mahallalarda ichki ko'chalar ta'mirlanib, asfalt qoplamalari yotqizildi. Farog'at mahallasida ichimlik suvi quvurlaridagi muammolar bartaraf etilib, 250 metr quvvur tortildi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 6-Mehrobd saylov okrugidagi mahallalar markazlari va xonadonlar oldiga 1200 tup archa va manzarali daraxt ko'chatlari ekilib, atrof-muhitni obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Uchrashuvda okrug hududidagi mahallalarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan galdagi vazifalar belgilab olindi.

O'zLiDeP viloyat kengashi matbuot xizmati.

Vatanparvarlik oyligi

Markaziy harbiy okrugning Samarqand garnizonida 2017-yilda harbiy-tarixiy muzey tashkil etilgan bo'lib, maskan faqat eksponatlar jamlangan bino emas, balki tarix, jasorat va vatanparvarlik ruhi aks etgan ma'naviy-ma'rifiy dargoh hisoblanadi.

Samarqanddagi harbiy tarixiy muzeyga borganmisiz?



Muzey ekspozitsiyalari Amir Temur va temuriylar davridagi harbiy san'atga bag'ishlangan bo'limlar bilan boshlanadi. Unda o'sha davr jangovar an'analari, qo'mondonlik mahorati, harbiy tartib-qoidalar, qurol-yarog' va harbiy texnika namunalari aks ettirilgan.

— Ushbu muzeyga tashrif buyuruvchilar buyuk sarkardaning harbiy strategiyasi va davlat boshqaruvidagi tajribasi bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi, — deydi Markaziy harbiy okrug tarbiyaviy-mafkuraviy ishlar boshqarmasi boshlig'i Hamza Umarov. — Shuningdek, muzeyda Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari yillarida vatan himoyasida fidokorlik ko'rsatgan yurtdoshlarimiz, jadidchilik harakati namoyandalari, shuningdek, ilmfan va ma'rifat qaroriyotiga munosib hissa qo'shgan ziyolilarning hayoti va faoliyatiga oid materiallar mavjud.



Muzeyning alohida bo'limlari milliy armiyamiz hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topishi, rivojlantirish bosqichlari va erishgan yutuqlariga bag'ishlangan. Shu bilan birga, Markaziy harbiy okrug faoliyati, harbiy-taktik mashg'ulotlar, xalqaro hamkorlik, tinchlikparvarlik operatsiyalari, zamonaviy harbiy texnikalar, harbiy xizmatchilarning fidoyi mehnatini aks ettiruvchi hujjatlar, mukofotlar va fotosuratlar namoyish etilgan.

Muzey zamonaviy talablargacha mos ravishda interaktiv taqdimotlar, virtual ekspozitsiyalar, videoarxivlar bilan jihozlangan. Bolalar va o'smirlar uchun joriy etilgan "Vatanparvarlik maktabi", buyuk bobolarimiz nomi bilan ataluvchi maxsus sinflar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda Vatanga muhabbat va mas'uliyat hissini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman, Samarqand garnizonidagi harbiy tarixiy muzey bugungi kunda tarix va zamonaviylikni o'zida uyg'unlashtirgan, ma'naviy tarbiya va harbiy-ma'rifiy markazga aylangan.

F.RO'ZIBOYEV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Muzafarova Kubaroga (1995-yil 31-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi 200-uy 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloeyevna notarial idorasida marhum Turakulov Rabbim Berdiyevichga (2025-yil 17-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Ismoilova Shahlo Bahrilloeyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Xakimov Abduxalilga (2020-yil 1-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Abdullaev

Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xan Ir-faga (2023-yil 30-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

BEKOR QILINADI

Samarqand davlat tibbiyot institutidan 2019-yilda Niyatova Mohidil Toshtemirovna nomiga berilgan ro'yxatga olish raqami 2009, B № 1034618 raqamli bakalavr diplomi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand davlat tibbiyot institutidan Niyatova Mohidil Toshtemirovnaga 2020-yil 7-oktabrdan 2021-yil 27-martgacha 864 soatli klinik laboratoriya diagnostikasi mutaxassisligi bo'yicha birlamchi ixtisoslashtirish kursini muvaffaqiyatli tugatgani uchun berilgan qayd raqami 001610, I № SDTI 000122 raqamli sertifikat yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Reportaj

“girolicha” si

Garchi o'zi bu janrni uncha yoqtirmasa-da, hamkasblari unga shunday ta'rif berishgan. Galina Troitskaya uchun janrning ahamiyati yo'q, aslida. Qanday vaziyat va munosabat bo'lmasin u hamma joyda eng avvalo inson qadri va sha'ni haqida o'ylaydi. U hech qachon ishga nisbatan yolg'on munosabatlar, raqam ortidan quvayotgan insonning hisobotlariga ishonmadi, hammasini o'zi borib tekshirib ko'rdi, odamlar bilan gaplashdi, dilidagini bildi. Hamma rost, deya ishontirayotgan vaziyatlarda ham toki holatni to'liq o'rganib chiqmaguncha qo'lga qalam olmadi.



Samarqandning “Leninskiy put” (hozirgi “Самаркандский вестник”) gazetasiga ishga kelishdan avval Galina Troitskaya sobiq ittifoqning barcha respublikalariga tarqaladigan “Literaturnaya gazeta”, “Komsomolskaya pravda”, “Pravda” gazetalarida maqolalari chiqqan, o'sha yerdagi ishlab, muxbir sifatida toblangan edi.

U qalamga olmagani mavzuning o'zi yo'q edi. Chekka qishloqlardagi ta'lim muassasalaridagi sharoitlar deysizmi, jinoyat ko'chasiga kirib, hukm o'qilgan inson taqdiri, salomatlik, umuman, ijtimoiy hayotning barcha jabhalari uning qalami orqali jonlanib, masala bor bo'y-basti bilan namoyon bo'la boshlaydi.

- Voqeaning o'zi emas, uning mohiyatini anglab, keyin maqola yozgan jurnalist har doim yutadi, - dedi Galina Troitskaya 70 yoshga to'lishi munosabati bilan matbuot uyida o'tkazilgan hamkasblari, shogirdlari bilan ijodiy uchrashuvda. - To'g'ri, gazeta jurnalistiga doim qiyin bo'lgan. Chunki vizual imkoniyatlarga ega bo'lgan omma-viy axborot vositalari bitta elementni ko'rsatish bilan ham juda ko'p fikrlarni aytib berishi mumkin, so'zga ham hojat qolmaydi, ammo gazeta jurnalisti so'zlarni saralab, mohiyatni anglab, fikrini ming chig'iridan o'tkazib yozmas ekan, yetarli natijaga erisholmaydi. Xulosa berish jurnalistning vazifasi emas, u o'zi guvoh bo'lgan va so'rab-surishtiruvlaridan kelib chiqqan fikrlarni ifodalab bersa bas. Qolgan o'quvchining hukmiga havola.

Tajribali jurnalist faoliyati davomida duch kelgan to'siqlar va ulardan qanday o'tgani, faoliyatining turli chorahalarida uchratgan insonlari va ularning nafaqat maqolasi, balki jamiyat qahramoniga ham aylangani haqidagi hikoyalarni jon qulog'imiz bilan tingladik. Do'stlari, hamkasblari Galina Fyodorovna haqidagi iliq fikrlarini aytishdi.

O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi, “Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalarini tahririyatining tashkurnoma va sovg'alari rasmiyatchilik emas, professional jurnalistga nisbatan e'tibor namunasi sifatida qabul qilindi.

Gulruh MO'MINOVA.

SHU OYDA TAYALUD TO'RGANLAR

7-YANVAR

Ilhom BAHROMOV - 1997-yilda Oqdaryo tumanida tug'ilgan. Yunon-rum kurashi bo'yicha jahon chempionatining ikki karra sovrindori, to'rt karra Osiyo chempioni. “Mard o'g'lon” Davlat mukofoti sohibi.

8-YANVAR

Isroil MIRZAYEV - (1938-2007) Qashqadaryo viloyati Koson tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori.

9-YANVAR

Ulug' TURSUNOV - (1905-1971). Qo'qon shahrida tug'ilgan. Tilshunos olim. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi.



Samarqand hunarmandchiligi — yutuqlar, imkoniyatlar va yangi rejalar

Keyingi yillarda mamlakatimizda hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash, ularning erkin faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2025-yil bu borada samarali natijalarga boy yil bo'ldi.

Bugungi kunda uyushmamizning a'zolari soni 2 ming 100 nafarga yaqinlashdi, 2025-yilning o'zida 101 nafar yangi hunarmand uyushmaga a'zo bo'ldi. Bu ko'rsatkich hunarmandchilik sohasiga bo'lgan qiziqish ortib borayotganini yaqqol namoyon etadi. Yil davomida 300 nafardan ziyod hunarmandga 1 milliard 750 million so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratildi. Shuningdek, “Usta-shogird” an'anasi asosida maktab tashkil etgan 54 nafar hunarmandga shogird tayyorlash uchun 855 million so'm subsidiya berildi.

Amalg oshirilgan qo'llab-quvvatlash choralari natijasida kulolchilik, qo'lda gilam to'qish, zargarlik, milliy qo'g'irchoqlar yasash, yog'och va mis o'yimkorligi kabi o'nlab hunar turlari yanada rivojlandi. Qo'lda tayyorlangan mahsulotlar hajmi oshdi, 4562 ta yangi

ish o'rinlari yaratildi hamda “Usta-shogird” maktablariga 2 ming nafarga yaqin shogird birlashtirildi.

Yaratilgan imtiyozlar tufayli yil davomida o'tkazilgan 60 dan ziyod respublika va xalqaro ko'rgazma hamda yarmarkalarda 325 nafar hunarmand o'z mahsulotlari bilan ishtirok etdi. Bu esa mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarining xalqaro bozorga chiqishiga xizmat qildi. Natijada ayrim hunarmandlarimizning xorijiy davlatlarda kichik ustaxonalari tashkil etildi.

2026-yil uchun ham rejalарimiz salmoqli. Jumladan, yangi yilda 4 ming 550 ta yangi ish o'rinlari yaratish ko'zda tutilgan bo'lib, shundan 550 tasi hunarmandlar, 4 mingtasi shogirdlar hissasiga to'g'ri keladi. “Usta-shogird” an'anasi asosida maktab tashkil etgan 294 nafar hunarmandga shogird tayyorlash uchun 1 milliard 95 million so'm ajratish rejalashtirilgan.

Shuningdek, 2026-yilda viloyatdagi 902 nafar hunarmandning loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 38 milliard 955 million so'm miqdorida imtiyozli kredit ajratilishi belgilangan.

Umid HAKIMOV, “Hunarmand” uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig'i.

San'at bilan kamol topgan inson

Musika va san'at inson qalбини тарбиялайди, руҳиятига нафосат бахш этади. Ана шу нафосатга ошно муҳитда камол топган, куй-қўшиқни ҳаётининг мазмунига айлантирган инсонлардан бири педагог, санъаткор олим Аслиддин Сирожевдир.



У 1951 йил 5 январь куни Самарқанд шаҳридаги Мотрид маҳалласида туғилган. Ёшлигидан мусиқа ва санъатга меҳр қўйди. Мактаб даврларидаёқ буюқ ки-зиқиш унинг ҳаёт йўлини белгилаб берди ва тақдирини мусиқа билан тамоллади. 1968 йилда ўрта мактабни тамоллаб, Самарқанд давлат мусиқа билим юртига ўқишга кирди. Устозларидан мусиқа са-боқларини олиб, ўқишни аъло боҳолар билан битирди ва Самарқанд давлат педагогика институтида Б.Мухаммадиев билан ҳамкорликда “Биоафша” тўга-рағига раҳбарлик қилди, ўзи ҳам шу институтда ўқиди. Олийгоҳни битиргач, Самарқанд шаҳридаги 22-сон болалар мусиқа мактабига ишга қабул қилинди. Болалар доирачилар дастасини ташкил этди ва Тошкентда бўлиб ўтган “Санъат байрами”да иштирок этиб, биринчи ўринни эгаллади.

Аслиддин Сирожев раҳбарлигидаги “Сўғдиёна зарблари” дастаси ташкил этилди ва мазкур гуруҳ кўплаб халқ-ро фестивалларда катнашди. Жумла-дан, Россиянинг Екатеринбург шаҳри-да ўтказилган “Ер — бизнинг умумий

уйимиз” шиори остидаги халқаро фестивалда 5 марта иштирок этди. 1987 йилда доира учун пьесалар тўпламини яратди. Шу йили Ҳожи Абдулазиз Абдурасулов ижодида этика ва эстетик тарбия ҳақидаги рисола-чоп этилди. Ижодкорнинг бу хизмат-лари эътироф этилиб, 1981 йилда “Халқ маорифи аълочиси” унвони, 1996 йилда “Сўғдиёна зарблари”га “Халқ дастаси” мақоми берилди. 2007 йилда эса ижодкорнинг самарали меҳнати, эришган ютуқлари эътироф этилиб, “Шўхрат” медали билан тақдирланди. Аслиддин ака фаолияти давомида 30 дан ортик давлатда гастроль сафар-ларида бўлди, юздан зиёд шогирдлар тайёрлади. У киши ҳозир ҳам ижоддан тўхтагани йўқ. Яқин кунларда ижодкор-нинг доира учун пьесалардан иборат янги китоби нашр этилиши кутилмоқда. У турмуш ўртоғи Дилбар Аминова билан олти нафар фарзандни эл корига ярай-диган инсонлар қилиб тарбиялади. Айна пайтда у 17 нафар набира ва 5 нафар

эваранинг меҳрибон бобоси.

Аслиддин ака нафақат оиласи-да, балки дўстлари, шогирдлари ва жамоатчилик орасида ҳам катта ҳур-мат-эътиборга сазовор.

— Аслиддин иқтидори, ташкилот-чилиги ва билимга чанқоқлиги билан талабалар орасида ажралиб турарди, — дейди Самарқанд давлат университети санъатшунослик кафедраси профессори Равшан Ҳамроқулов. — Самарқанд дав-лат педагогика институтида “Гулдаста” ансамблига раҳбарлик қилган йилла-рим Аслиддин доирани жуда маҳорат билан чалар, республика ва халқаро танловларда доим ўзини кўрсатарди. Унинг иқтидори ва изланувчанлиги катта санъатга қадам қўйишига, ҳаётда ўз ўрнини топишига туртки бўлди. Кейинчалик ёшларга мусиқадан дарс бериб, кўплаб шогирдлар тайёрлади, вилоятда биринчилар қаторида доира-чилар ансамблини ташкил қилди. Қисқа вақтда бу ансамбль ўз ижодий макта-бига эга бўлиб, миллий мусиқа ижроси ва сахна маданиятини уйғунлаштирган чиқишлари билан кенг жамоатчилик эътиборини қозонди. Аслиддин нафақат иқтидорли ижрочи, балки талабчан ва меҳрибон устоз сифатида ҳам танилди. У ҳозир ҳам миллий мусиқа санъатини ривожлантириш ва уни келгуси авлодга етказиш учун хизмат қилмоқда.

Санъатга садоқат билан хизмат қилиб келаётган устоз Аслиддин Сиро-жевини кутулғ 75 ёши билан табриклаб, у кишига мустаҳкам соғлик, ижодий бардавомлик ва узоқ умр тилаймиз.

Амриддин АЛИҚУЛОВ, Самарқанд ихтисослаштирилган санъат мактаби бўлим бошлиғи.

Бежиз умрни оқар дарёга қиёслашмайди. Чунки инсон улғайгани сари ҳаёти давомида кўрган-кечирганлари, яхши ва кўнгилсиз хотираларини ёдга олиб, умр қанчалик тез ўтиб кетаётганини ҳис қилади. Олижаноб ва эзгу ишлари эса унинг умрини гўзал ва барҳаёт қилади. Пайариқда ҳаётини эзгу ишларга бағишлаган инсонлардан бири, ички ишлар тизими фахрийси Бахтиёр Примовдир.

Ҳаёт йўлларида қилгаймиз ҳавас...

Бахтиёр Примов 1961 йилнинг 6 ноябрида Пайариқ туманидаги Октош маҳалласи-да Аҳад ота ҳамда Улбозор ая хонадонида туғилди. Қишлоғи-даги 45-ўрта мактабда ўқиди. 1979-1984-йилларда Тошкент давлат университетининг ҳуқуқшунослик факультетида таҳсил олди. Университетни муваффақиятли тамомлагач, иш фаолиятини Самарқанд шаҳридаги собиқ Темирийўл туман ички ишлар бўлимида терговчи сифатида бошлади. 1989-1999 йилларда Пайариқ туман ички ишлар бўлимида тергов бўлими бошлиғи, туман ички ишлар бўлими бошлиғи ўринбосари бўлиб ишлади. Кейинчалик вилоят ички ишлар бoшқармаси тергов бўлими бошлиғи, 2002-2006 йиллар-да Пайариқ туман ички ишлар бўлими жиноят қидирув бўлими бошлиғи, Челақ шаҳри ички ишлар бўлими бошлиғи ла-возимларида меҳнат қилиб, нафақага чиқди.

Б.Примов 25 йиллик фаоли-ти давомида жиноятчиликнинг олдини олиш бўйича кўплаб ишларни амалга оширди. Унинг бевоқиф раҳбарлигида ўнлаб жиноятлар очилиб, ҳуқуқбу-зарлик ҳолатларининг олди олинди.

Унинг меҳнати Ички ишлар вазирилиги, вилоят ички ишлар бoшқармаси томонидан муно-сиб эътироф этилди. Нафақага чиққач, яна 3 йил тумандаги



адвокатлик фирмасида фаолият олиб бoрди.

Бахтиёр Примов кейин-ги йилларда ўғли Элёр билан оилавий тадбиркорлик билан шуғулланиб келмоқда. Яқинда улар ташаббус билан чиқиб, оилавий жамғармаси ҳисобидан туман марказидаги Фаровон, Тоҳиршайх ва Алишер Навоий номи маҳаллалар ҳудудидаги 480 хонадонни ичимлик суви билан таъминлашга кўма-клашди. Бундай хайрли ишлар туман ҳокимлиги, “Юксалиш” умумий миллий ҳаракати томо-нидан қўллаб-қувватланди ва Б.Примов 2025 йилда “Ора-миздаги қаҳрамонлар” лойи-ҳасининг ғолиби бўлди.

Баҳодир Примов турмуш ўртоғи Замира ая билан 3 фар-зандни тарбиялаб волга етка-зишди. 9 нафар набира бугун улар атрофида парвона.

Искандар ТЕМИРОВ, фахрий журналист.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 780 nusxada chop etildi. Buyurtma 2. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.

Sahifalovchi:


B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

Gazetaning navbatdagi soni 2026-yil 10-yanvar, shanba kuni chop etiladi.

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda